

**INTEGRATSION YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINFLARDA
TEXNOLOGIYA FANINI FANLARARO O'QITISHNING ILMY-METODIK
TAHLILI.**

Sodiqova Aziza Hayitovna
Zarmad Universiteti "Ijtimoiy fanlar"
o'qituvchisi, p.f.f.n., (PhD)
azizasodiqova926@gmail.com

Zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida integratsion yondashuvlar asosida dars jarayonlarini tashkil etishga bo'lган talab tobora ortib bormoqda. Integratsion yondashuv, o'quvchilarning fanlarni chuqurroq tushunishlarini va ular orasidagi o'zaro bog'liqliklarni anglashlarini ta'minlaydi. Mamlakatimizning ta'lim sohasidagi islohotlari, jumladan, maktabgacha ta'lim va mакtab ta'limi tizimini rivojlantirish, o'qituvchilarning malakasini oshirish, ta'limda integratsion yondashuvni tashkil etish va o'quvchilarning ta'lim olish sharoitlarini yanada yaxshilash kabi tadbirlar bu jarayonni yanada samarali qilmoqda.

"O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar ham ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan. Ushbu strategiya, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim sifatini oshirish, ma'naviy tarbiyaning uзвиyligini ta'minlash va milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash kabi muhim yo'naliishlarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida, barkamol avlod tarbiyasiga qaratilgan e'tibor yanada kuchaytirilmoqda. Bu esa o'quvchilarning jismonan va ma'nan rivojlanishini ta'minlashda, shuningdek, ularni zamonaviy jamiyatning faol fuqarolari sifatida shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan ushbu o'zgarishlar, mamlakatimizning kelajakdagi taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor yaratishga xizmat qiladi va barkamol avlodni tarbiyalashda yangi imkoniyatlar ochadi.

Integratsion yondashuvli ta'lim va uning boshlang'ich sinflar ta'limida qo'llanilishi. Zamonaviy ta'lim jarayonida boshlang'ich sinflarda darslarni integratsion yondashuvlar asosida tashkil etish tobora ortib bormoqda. Maqolada, texnologiya fani asosida boshlang'ich sinflarga qo'llaniladigan integratsion yondashuvning afzalliklari, uning o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishdagi roli hamda amaliyotda qo'llash usullari muhokama qilinadi. Boshlang'ich sinflarda texnologiya fani darslariga integratsion yondashuvni qo'llash, o'quvchilarga fanlararo bog'liqliklarni tushunishda yordam beradi va ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Integratsion yondashuv tushunchasini shunga o'xshash talqin qiladi. L.N.Bakarevaning fikricha, "integratsiya" - fanlarni o'zaro aloqasi va mazmunan yaqinlashishidir. Integratsiya fanlararo aloqa, o'qitishni yangi sifat darajaga

ko'taruvchi, ya'ni bir butun "bilimlar monoliti"ni yaratishga imkon beruvchi vosita" deb ta'rif beradi. Integratsion yondashuv, o'quvchilarni turli fanlarni chiqroq tushunishlarini va ular orasidagi bog'liqliklarni anglashlarini ta'minlaydi. Shuningdek, bu yondashuv o'quvchilarning mustaqil ishslash ko'nikmalarini shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Fanlararo integratsiya - bu o'quvchilarga turli fanlarni birlashtirib, ular orasidagi bog'liqliklarni ko'rsatish orqali chiqroq bilim berish usulidir. Integratsiyani fanlar orasida qo'llaganimizda texnologiya fani yuzasidan ko'rib chiqsak bo'ladi. Texnologiya fani darslariga integratsion yondashuvni qo'llash, o'quvchilarning fanlararo tushunchalarini mustahkamlashga va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Avvalo, texnologiya fanini qanday yuzaga kelgani va bizni hayotimizda qanday rol o'ynashi haqida tushuncha bersak.

"**Texnologiya**" fani insonlar hayotida muhim o'rinni tutuvchi amaliy mehnat faoliyatiga tayyorgarlik jarayonidagi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun muhimdir. Aytaylik, Texnologiya fandagi bir mavzuni o'quvchiga tushuntirish uchun uni shunchaki aytib yoki yozdirib tushuntirish ham mumkin, yoki uni atrof-muhit, tabiat va boshqa fanlar bilan bog'lab tushuntirib berish ham mumkin. Bu ikkala holardan qaysi biri o'quvchi uchun tushunarli va qiziqarli bo'ladi deb o'ylaysiz. Albatta, ikkinchi usulda tushuntirilgan dars sifati yuqori va samarali bo'ladi. Chunki, bu jarayon integratsion yondashuvga asoslangan. Texnologiya fani darslarida quyidagi integratsion usullar qo'llanilishi mumkin:

Amaliy mashg'ulotlar: O'quvchilarga turli fanlardan olgan bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatini berish. Masalan, texnologiya darsida o'quvchilar qog'oz va kartondan biror buyum yoki narsani yasashi uchun uni avvalo tasavvur qilishi, tushunishi lozim bo'ladi, buning uchun o'qituvchi shu yasashi kerak bo'lgan buyum yoki narsani o'quvchilarga atrof-muhit va jamiyatga bog'lab tushuntirishi ya'ni shu mavzuni boshqa fanlar bilan bog'lab o'tishi lozim bo'ladi. Keling, tasviriy san'at darsiga bog'laylik. Yasalishi kerak bo'lgan buyumni ko'rinishi qanday, uni chizish ko'nikmasi hamda matematika darsida o'rganilgan hisob-kitob ko'nikmalarini texnologiya darsida loyihalarni rejalshtirish va amalga oshirishda qo'llash.

Texnologiya fani darslarida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va integratsion usullardan foydalanish, o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bunday mashg'ulotlar, o'quvchilarga fanlararo bog'liqliklarni tushunish va mustaqil ishslash ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Amaliy mashg'ulotlar quyidagi qadamlarni o'z ichiga olishi mumkin:

Loyihalarni rejalshtirish: O'quvchilar matematika darsida o'rganilgan hisob-kitob ko'nikmalarini qo'llab, texnologiya darsida loyiha rejasini tuzishadi. Bu

jarayonda ular loyiha uchun zarur bo'lgan materiallar miqdorini hisoblash, xarajatlar smetasini tuzish va vaqt jadvalini ishlab chiqish kabi vazifalarni bajaradilar.

Amaliy ishlar: O'quvchilar rejalashtirilgan loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etadilar. Bu jarayonda ular asbob-uskunalar bilan ishslash, materiallarni qayta ishslash va loyihani yig'ish kabi amaliy ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Fanlararo aloqadorlik: Texnologiya darslarida o'quvchilar matematika, fizika, kimyo kabi fanlardan olgan bilimlarini qo'llashadi. Masalan, fizika darsida o'rganilgan kuch va harakat qonunlarini texnologiya darsida qurilma yaratishda qo'llash.

Ijodiy yechimlar: O'quvchilarni turli muammolarga ijodiy yechimlar topishga undash. Ular o'z loyihalarida yangi g'oyalar va texnologiyalarni qo'llash orqali noyob mahsulotlar yaratishga harakat qiladilar.

Taqriz va Baholash: O'quvchilar amalga oshirilgan loyihalarni taqriz qilish va baholash jarayonida ishtirok etadilar. Bu jarayonda ular o'zaro hamkorlik qilish, konstruktiv tanqid berish va o'z ishlarini takomillashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilar nazariy bilimlarni amaliyatda qanday qo'llash mumkinligini tushunib, mustaqil fikrlash va ijodiy yechimlar topish qobiliyatlarini oshiradilar. Shuningdek, bu jarayon ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatlariga poydevor qo'yadi va hayotiy muammolarni hal qilishda zarur bo'lgan ko'nikmalarini shakllantiradi.

O'quvchilarni turli fanlar bo'yicha bilimlarini birlashtirib, biror muammo yoki vazifani hal qilish uchun loyihalar yaratishga rag'batlantirish. Loyihaviy ishlar, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni turli fanlar bo'yicha bilimlarini birlashtirib, muammolarni hal qilish va ijodiy yechimlar topish uchun mo'ljallangan darslardir. Ushbu yondashuv, o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga va ularni amaliy vazifalarini hal qilishga tayyorlashga yordam beradi. Natijalarini Baholashda o'quvchilar loyiha natijalarini baholash va ularning samaradorligini tahlil qilish jarayonida ishtirok etadilar.

Loyihaviy ishlar orqali o'quvchilar o'z bilimlarini amaliyatda qanday qo'llash mumkinligini tushunib, mustaqil fikrlash va ijodiy yechimlar topish qibiliyatlarini oshiradilar. Shuningdek, bu jarayon ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatlariga poydevor qo'yadi va hayotiy muammolarni hal qilishda zarur bo'lgan ko'nikmalarini shakllantiradi. Fanlararo mavzular va ijodiy yondashuvlar.

Tabiatshunoslik, matematika, ona tili kabi fanlarni texnologiya bilan bog'liq mavzular orqali o'rgatish. Masalan, ekologiya mavzusida texnologiya va tabiatshunoslikni birlashtirish. O'quvchilarni turli fanlardan olgan bilimlarini ijodiy tarzda ifodalashga undash. Masalan, rassomlik san'ati yoki she'riyat orqali texnologik g'oyalarini tasvirlash. Ijodiy yondashuvlar, o'quvchilarni turli fanlardan olgan bilimlarini ijodiy tarzda ifodalashga undaydi. Masalan, rassomlik san'ati yoki she'riyat orqali texnologik g'oyalarini tasvirlash jarayoni quyidagicha amalga oshirilishi

mumkin. Ushbu yondashuvlar, o'quvchilarning bilimlarini faqat 5 nazariy emas, balki amaliy jihatdan ham chuqurroq o'zlashtirishlariga yordam beradi va ularni hayotda duch keladigan turli vaziyatlarga tayyorlaydi. Bunday integratsion yondashuvlar, o'quvchilarning o'z bilimlarini turli sohalarda qo'llay olish qobiliyatini oshiradi va ularni kelajakda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan qurollantiradi.

Integratsion yondashuvning afzallikkari va texnologiya fanini o'qitishdagi ahamiyati. Integratsion yondashuv, turli fanlararo bog'liqliklarni o'rnatish orqali o'quvchilarning bilimini chuqurroq va amaliyotga yo'naltirilgan qilishga yordam beradi. Bu yondashuv, o'quvchilarga bilimlarni hayotiy vaziyatlarga qo'llash imkonini beradi va shu orqali ularning tushunchalarini mustahkamlashga yordam beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun texnologiya fanini o'qitishda integratsion yondashuvning ahamiyatini ko'rishimiz mumkin bular ko'nikmalar va bilimlarni birlashtirishda boshlang'ich sinf o'quvchilari turli fanlardan olgan bilimlarini texnologiya fanida qo'llash orqali o'zlarining tushunchalarini mustahkamlashadi. Bu ularning o'rganish jarayonini yanada samarali va ma'noli qiladi. Ijodkorlik va innovatsion fikrlashni rivojlantirishjarayonoda integratsion yondashuv o'quvchilarga turli fanlararo bog'liqliklarni ko'rish va yangi g'oyalar yaratish imkonini beradi.

Bu esa ularning ijodiy va innovatsion fikrlash qobiliyatlarini oshiradi. Muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishda texnologiya fanida integratsion yondashuv o'quvchilarga murakkab muammolarni tahlil qilish va ularni hal qilish uchun turli yechimlarni izlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari o'zaro hamkorlik va jamoa ishini qo'llab-quvvatlashda o'quvchilar turli fanlar bilan integratsiya qilingan darslar orqali bir-birlari bilan hamkorlik qilish va jamoa sifatida ishlash ko'nikmalarini oshiradilar va hayotiy ko'nikmalarni o'rgatishda integratsion yondashuv o'quvchilarga hayotda duch keladigan turli vaziyatlarda o'z bilim va ko'nikmalarini qo'llash imkonini beradi.

Maqolaning ilmiy va amaliy ahamiyati, shuningdek, kelajakdagi tadqiqotlar uchun takliflar. Boshlang'ich sinflarda integratsion yondashuvni qo'llash, o'quvchilarning bilimini yanada chuqurroq va amaliyotga yo'naltirilgan qilishda muhim rol o'ynaydi. Texnologiya fani asosida amalga oshirilgan integratsion yondashuv, o'quvchilarga fanlararo bog'liqliklarni ko'rish va ularni hayotiy vaziyatlarga qo'llash imkonini beradi. Bu esa, o'quvchilarning tushunchalarini mustahkamlash va ularning ijodiy yechimlar topish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ilmiy va amaliy ahamiyati haqida keladigan bo'lsak ushbu maqola, boshlang'ich sinflarda texnologiya fanini o'qitishda integratsion yondashuvning ilmiy asoslarini yoritib beradi.

Amaliy jihatdan esa, o'qituvchilarga dars jarayonini yanada samarali va o'quvchilarga qiziqarli qilish bo'yicha aniq yo'nalishlar taklif etadi. Shuningdek, bu

yondashuv o'quvchilarning ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda yangi metodlar joriy etish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, umumta,,lim maktablarida texnologiya ta'limi darslarida mavzularni o'qitishda va amaliy o'rnatish jarayonida albatta boshqa fanlar bilan aloqadorlik asosiy o'rinni egallaydi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi qonuni. //www.ziyonet.uz
2. Anarkulova G.va boshq. "Texnologiya" ta'limi praktikumi.–Toshkent, 2019
3. "O'zbekiston-2030" strategiyasida ta'lim-tarbiya masalalari <https://yuz.uz/uz>
4. Tashpulatova D "Технология" фанини ўрганиш зарурияти. Farg'ona davlat universiteti "Maktabgacha va boshlang`ich ta'limning dolzarb masalalari: muammo, yechimlar va rivojlanish istiqbollari" Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. 18 noyabr 2022 yil
5. Sodiqova.A.H. Boshlang'ich ta'limda integratsiyalashgan ta'limning pedagogik asoslari va tadqiqot metodlari. Ped.mahorat. 2024 yil, avgust.
6. Sodiqova.A.H. Педагогические основы и научные методы исследования интеграционного подхода в начальном образовании. Ped.mahorat. 2025 yil, fevral.